

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./KXTR9100>
UDC: 347.78(045)(575.1)

MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY BOSHQARISH TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI

Yakubova Iroda Bahromovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellektual mulk huquqi kafedrasи dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-0151-1921
e-mail: i.yakubova@tsul.uz

Annotatsiya. Huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkiloti to'g'ridan to'g'ri huquq egalari tomonidan tuzilganligi va shartnoma bo'yicha ulardan olingen vakolatlar doirasida faoliyat yuritayotganligi sababli bunday tashkilotning faoliyati a'zolikka asoslangan deb aytish mumkin. Bunda mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha yuridik shaxs tashkil etishda subyektlarning birlashmasi ushbu huquqlarni jamoaviy asosda boshqarishda ifodalanadi. Huquq egalarining tashkilotga a'zoligi jamoaviy boshqarov tashkilotini tavsiflovchi muhim elementlardandir. Qolaversa, mualliflik asarlaridan muallif ruxsatisiz foydalanish va mualliflarga mualliflik haqi adolatli to'lanmayotganlik holatlarining ko'pligi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish institutini rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan ham dalolat beradi. Mamlakatimizda o'z yechimini kutayotgan bir qancha masalalar mavjud bo'lib, mualliflik-huquqi munosabatlarni tartibga solish, xususan, uning muhofazasida mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish va mualliflik shartnomasi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuningdek, maqolada ushbu institutni takomillashtirish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolar, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlari va milliy qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahlili, shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e'tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lash, mualliflik huquqini amalga oshirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish, asarni omma oldida ijro etish, kengaytirilgan jamoaviy boshqarish.

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОЙ ФОРМЫ КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ИМУЩЕСТВЕННЫМИ ПРАВАМИ В АВТОРСКОМ ПРАВЕ

Якубова Ирода Бахрамовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Поскольку организация по коллективному управлению правами создается непосредственно правообладателями и действует в рамках полномочий, полученных от них по договору, можно сказать, что деятельность такой организации носит членский характер. В этом случае говорят, что объединение субъектов для образования юридического лица по охране

авторских прав выражается в управлении этими правами на коллективной основе. Членство правообладателей в организации является одним из важных элементов, характеризующих организацию коллективного управления. Эти реформы касаются таких вопросов, как обеспечение прав и законных интересов авторов, прекращение несанкционированного использования произведений, охраняемых авторским правом, справедливая оплата авторских прав, усиление мер ответственности за нарушения авторских прав. Кроме того, большое количество случаев несанкционированного использования авторских произведений и недобросовестной оплаты авторских прав свидетельствует о растущей необходимости развития института коллективного управления авторскими имущественными правами. В нашей стране существует ряд вопросов, которые ждут своего решения, в том числе регулирование авторско-правовых отношений, в частности коллективного управления авторскими правами и их защиты, поэтому исследование процессов, связанных с авторским договором, является актуальной задачей. Кроме того, в статье акцентируется внимание на некоторых современных проблемах, связанных с совершенствованием данного института, на международных стандартах защиты авторских прав и сравнительно-правовом анализе национального законодательства, а также на мнениях ученых Узбекистана и зарубежных стран. Выдвинуты предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение для развития авторского права.

Ключевые слова: авторские права, вознаграждение по авторским договорам, защита авторских прав в принудительном порядке, коллективное управление авторскими и смежными правами, объекты авторских и смежных прав, публичное исполнение произведения.

CIVIL LEGAL ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FORM OF COLLECTIVE MANAGEMENT OF PROPERTY RIGHTS IN COPYRIGHT

Yakubova Iroda Bakhramovna,

Associate Professor, Department of Intellectual Property Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. Since a collective rights management organization is formed directly by right holders and acts within the framework of powers received from them under the contract, it can be said that the activities of such an organization are membership-based. In this case, we say that the association of entities to form a legal entity for the protection of copyright is expressed in the management of these rights on a collective basis. Membership of rights holders in the organization is one of the important elements characterizing collective management organization. These reforms are related to issues such as ensuring the rights and legal interests of authors, putting an end to the unauthorized use of copyrighted works, fair payment of copyrights and strengthening accountability measures for copyright violations. In addition, a large number of cases of unauthorized use of author's works and non-fair payment of copyright to authors indicate the growing need to develop the institution of collective management of author's property rights. In our country, there are a number of issues that are waiting for their solution, and the regulation of copyright-legal relations, in particular, collective management of copyrights in its protection, and the research of the processes related to the copyright contract are urgent tasks. In addition, the article focuses on some current problems related to the improvement of this institution, international standards of copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other countries. Proposals and recommendations of scientific and practical importance for the development of copyright were put forward.

Keywords: copyright, to enforce copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work, objects of copyright and related rights, extended collective management.

Kirish

Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari bevosita mualliflik huquqi egalari tomonidan tuziladi. Ko'rinish turibdiki, "mualliflik huquqi egalari" tushunchasi mutlaq mualliflik huquqi egalarining barcha mumkin bo'lgan toifalari (shu jumladan, mualliflik to'lovlarini olish huquqi)ni o'z ichiga oladi: mualliflar, merosxo'rlar va shartnoma yoki qonun asosida mutlaq mualliflik huquqini olgan boshqa shaxslar (orttirilgan huquqlarni uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan). Shartnoma bo'yicha mutlaq mualliflik huquqini olgan shaxslarga, xususan, nashriyotlar (musiqa, adabiy va boshqalar) kiradi. Ularning asosiy vazifasi asarlarni targ'ib qilish va ulardan foydalanishdan daromad olish bo'lib, oladigan ma'lum ulushi mualliflar (merosxo'rlar) o'rtasida taqsimlanadi.

Huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkiloti to'g'ridan to'g'ri huquq egalari tomonidan tuzilganligi va shartnoma bo'yicha ulardan olingan vakolatlar doirasida faoliyat yuritayotganligi sababli bunday tashkilotning faoliyati a'zolikka asoslangan deb aytish mumkin [1, 65–69-b.]. Huquq egalarining tashkilotga a'zoligi jamoaviy boshqaruv tashkilotini tavsiflovchi muhim elementlardan biridir. Bunday tashkilot mualliflik huquqi egasi va tashkilot o'rtasida hujjatlashtirilgan individual huquqiy munosabatlarga ega bo'lishi lozim [2, 119–123-b.]. Bu tashkilotni yaratish bosqichida ham, uning mavjudligining keyingi davrida ham zarur. Chunki bunday tashkilotlar o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda, hujjatli tasdiqlashni talab qiladigan ko'plab huquq egalarini birlashtirishi darkor. Shundan keyingina tashkilot huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqaruvni amalga oshirish huquqi, ya'ni barcha mualliflik huquqi egalari, shu jumladan, tashkilotga a'zo bo'limganlar uchun ruxsatnomalar berish va mualliflik to'lovlarini yig'ish huquqlariga ega bo'ladi [3, 66–74-b.]. Ushbu talab xalqaro tashkilotlar amaliyoti, xorijiy qonunchilik-

ning huquqiy normalari va amaliyoti bilan tasdiqlangan.

Bunday tashkilotga jismoniy va yuridik shaxslar ham a'zo bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar esa ham tijorat, ham notijorat tashkilotlar maqomiga ega bo'ladi. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish institutining mohiyati huquq egalarining keng qamroqli birlashmasi mavjudligini nazarda tutadi va bu, o'z navbatida, huquqlarni jamoaviy boshqarishni tashkil etishning shunday tashkiliy-huquqiy shakli mavjudligini talab qiladi. Bu esa turli huquqiy maqomga ega shaxslarni birlashtirish va ularning huquqlarini jamoaviy boshqarishga imkon beradi [4, 36–45-b.].

Material va metodlar

Intellektual mulk huquqi olimlarning mavzuga oid ilmiy qarashlari tahlillari natijalariga asoslanib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni "jamoaviy boshqaruv" asosida amalga oshirish usullari va uning samaradorligi, ushbu huquqlardan foydalanishning natijadorligi hamda mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarishning himoya qilish obyekti: sun'iy intellekt va mualliflik huquqi o'rtasidagi muammolar o'rganilgan va mazkur masalalar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Intellektual bilimlar (ilmiy, ilmiy-amaliy va o'quv adabiyotlar) yig'indisi qiyosiy-huquqiy tahlili bilan birlashtirilgan individual huquqiy munosabatlarga ega bo'lishi lozim [2, 119–123-b.]. Bu tashkilotni yaratish bosqichida ham, uning mavjudligining keyingi davrida ham zarur. Chunki bunday tashkilotlar o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda, hujjatli tasdiqlashni talab qiladigan ko'plab huquq egalarini birlashtirishi darkor. Shundan keyingina tashkilot huquqlarni "kengaytirilgan" jamoaviy boshqaruvni amalga oshirish huquqi, ya'ni barcha mualliflik huquqi egalari, shu jumladan, tashkilotga a'zo bo'limganlar uchun ruxsatnomalar berish va mualliflik to'lovlarini yig'ish huquqlariga ega bo'ladi [3, 66–74-b.]. Ushbu talab xalqaro tashkilotlar amaliyoti, xorijiy qonunchilik-

Tadqiqot natijalari

Tashkilot a'zolari mualliflar (merosxo'rlar), noshirlar va ittifoqdagi jiddiy kuchni ifodalovchi boshqa huquq egalari bo'lishi mumkin. Bu amaliyot butun dunyoda mavjud. Mualliflar (merosxo'rlar) va iqtisodiy jihatdan kuchliroq nashriyotlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi haqida asosli xavotilar mavjud. Noshrchipilar, birinchi navbatda, biznesmenlar bo'lib, ular uchun asarlar-

ni ekspluatatsiya qilishdan olingen foyda muhim ahamiyatga ega. Ba'zi mamlakatlarda noshirlar faqat maxsus foydalanish uchun tashkilotdan cheklangan litsenziyalar olishlari mumkin. Bu mamlakatlardagi nashriyotlar tashkilotga doimiy a'zo sifatida qabul qilinmaydi [5, 76-b.].

Darhaqiqat, bunday xavfning mavjudligi asoslidir. Biroq noshirlarning tashkilotdagi ishtiroki (hech bo'limganda, oddiy a'zolar sifatida emas) quyidagi sabablarga ko'ra hali ham zarur. Dunyoning aksariyat mamlakatlarda, qoida tariqasida, nashriyotlar ko'pgina asarlar uchun mutlaq mualliflik huquqining egalari hisoblanadi. Foydalanuvchiga ruxsat (litsenziya) beruvchi tashkilotga asarlarning mutlaq mualliflik huquqi egalari tomonidan ruxsat berilishi kerak. Bundan tashqari, noshirlar mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkiloti ortidagi mualliflarga qaraganda ko'proq uyushgan va professional kuch bo'lib, foydalanuvchilar bilan muzokaralar olib borish va litsenziyalar uchun qulay moliyaviy shartlar bo'yicha muzokaralarda ularning vakili hisoblanadi. Bunday nashriyotlarga mualliflik huquqi uchun jamoaviy boshqaruv tashkiloti kerakmi, degan savol tug'iladi. Bu savolga ijobiy javob berish mumkin.

Birinchidan, nashriyotchilar o'zlarining mutlaq huquqlariga ega bo'lgan asarlarning, ta'bir joiz bo'lsa, ko'proq talabga ega bo'lganligi va iloji boricha, tez-tez foydalanilganidan manfaatdor. Bunday holda ishlardan foydalanish intensivligi va bunday foydalanishdan olingen daromad o'rtaida bevosita bog'liqlik mavjud. Biroq ba'zi jamoaviy boshqariladigan asarlardan foydalanishda noshirlarning mutlaq mualliflik huquqini individual ravishda amalga oshirish muhim qiyinchiliklar tug'diradi, chunki mualliflik huquqi egasi asarlar dan foydalanuvchi bo'lgan ko'p sonli odamlar bilan muomalaga kirishishiga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, turli nashriyotlarning manfaatlarini yagona mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkiloti doirasida birlashtirish ularning mulkiy manfaatlarini

yanada samarali himoya qilish imkonini beradi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda ham mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar atrofida noshirlarni birlashtirish tendensiyasi juda aniq namoyon bo'lmoqda. Buni deyarli barcha yirik musiqa nashriyotlari bilan shartnomalar imzolagan va ular nomidan nashriyot repertuaridagi asarlardan ommaviy ijro sohasida, televdeniye (radio), kabel, sim yoki boshqa shunga o'xshash vositalar orqali xabarlar, buning uchun haq yig'ishga ruxsatnomalar (litsenziyalar) bergan O'zbekistondagi mavjud mualliflar jamiyatlari misolida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkiloti qabul qila olmaydigan hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotining maqsadlaridan farqli maqsadlarni ko'zlagan va a'zo bo'limgan notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari jamoaviy boshqaruv tashkilotlari ro'yxatiga kiritilmaydi. Amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan notijorat tashkilotlarining barcha tashkiliy-huquqiy shakllaridan huquqlarni jamoaviy boshqarish sohasi uchun eng maqbuli jamoat tashkiloti va notijorat sheriklik sifatida shakllanadigan tashkilotlardir.

Jamoat tashkilotiga xos bo'lgan bir xususiyatni ta'kidlash kerak: notijorat tashkilotning ushbu tashkiliy-huquqiy shakli yuridik shaxslarga unda to'la huquqli ta'sischilar va a'zolar sifatida harakat qilishlariga imkon bermaydi. Qoida tariqasida, yuridik shaxs bo'lgan nashriyotlar bunday vaziyatda tashkilotning to'liq a'zosi sifatida harakat qilishi va shuning uchun uning siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum. Ular bilan tashkilot agentlik tipidagi shartnomalar tuzadi. Unga ko'ra nashriyot repertuariga kiritilgan asarlar uchun ularning nomidan litsenziyalar beradi va ulardan foydalanganlik uchun haq undiradi. Aynan shu sxema bo'yicha mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish sohasida monopolist bo'lgan jamoat tashkiloti shaklida yaratilgan Mualliflar va ijrochilar gildiyasi ishlagan. Hozirda yaqinda

yaratilgan mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha boshqa tashkilotlar, qoida tariqasida, yuridik shaxslarga – mutlaq mualliflik huquqi egalariga ushbu tashkilotning ta'sischilari va to'liq a'zolari sifatida harakat qilishlariga imkon beradigan huquqiy shaklni tanlaydilar.

Bunday tashkilotning ta'sischilari bo'lishi mumkin bo'lgan mualliflik huquqi egalari soni, shuningdek, tashkilot a'zolarining eng kam miqdori mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanmagan. Ushbu qoidalar notijorat tashkilotlarni tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlarda ham mavjud emas. Faqat "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga binoan, jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzilishi belgilangan. Agar biz qiyosiy tahlil qilsak, boshqa mamlakatlardan qonunchiligidan ham bunday tashkilotni yaratishi mumkin bo'lgan huquq egalarining minimal soni (yoki ushbu tashkilot a'zolarining eng kam soni)ni belgilaydigan qoidalar mavjud emas. Buning sababi, shubhasiz, huquqlarni jamoaviy boshqarish to'g'risidagi maxsus qonunlar qabul qilingan paytda ushbu mamlakatlarda bunday tashkilotlar allaqachon shakllangan edi. Ularning shakllanish jarayoni bizning mamlakatimizga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki ko'plab mamlakatlarda mualliflarning uyushgan professional ishlaydigan birlashmalari (masalan, Fransiya) mavjud.

Yevroparlament va Kengash tomonidan 2014-yil 26-fevralda qabul qilingan Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish hamda musiqa asarlariga huquqlardan ichki bozorda onlayn foydalanish uchun ko'p hududiy litsenziyalash to'g'risidagi 2014/26/EI Direktiva Fransiya milliy qonunchiligiga ham implementatsiya qilingan. Direktivaning maqsadlaridan biri mualliflar huquqlari egalarining bunday huquqlarni boshqarishda erkinligini ta'minlash va kafolatlashdir. Xususan, ushbu huquq

egalari jamoaviy yoki yakka tartibdagi boshqaruv o'rtasida tanlov qilishlari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'zlarini ishonib topshirmoqchi bo'lgan huquqlar toifalarini belgilashlari, bunday ishonib topshirish orqali tegishli hududlarni belgilashlari, bunday huquqlarni ishonib topshirish va hech qanday tijorat ustunligiga olib kelmaydigan foydalanish uchun ruxsatnomalar berish hamda osongina bekor qilishlari ham mumkin bo'lishi kerak. Ushbu erkinlik samarali bo'lishi uchun u barcha huquq egalariga ma'lum bo'lishi lozim. Shu sababli jamoaviy boshqaruv tashkilotlari o'z huquqlarini boshqarishni ularga ishonib topshirmoqchi bo'lgan huquq egalarি roziligin olishdan oldin xabardor qilishlari kerak. Ushbu huquqlar allaqachon SACHEM nizomi [6] va umumiyoq qoidalarda mustahkamlangan.

Yuqorida aytganimizdek, cheklangan hundud doirasida juda ko'p sonli tashkilotlarning birgalikda ishlashi juda tor va iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lar edi. Royaltilarni taqsimlash tizimining qimmatligi katta miqdordagi pulni jalb qilishni talab qiladi. Bu yerda ko'plab mualliflik jamiyatları barcha uchun umumiyoq repertuardan foydalanishning bir sohasida ishlashi kichik davlatda imkon-sizdir. Ba'zan ushbu mamlakatlardan qonunchiligidan aynan shu masala bo'yicha umumiyoq va juda noaniq qoidalarni topishimiz mumkin. Masalan, Germaniyaning 1965-yil 9-sentabrdagi 1294-sonli "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to'g'risida"gi qonuni 2-moddasiga muvofiq (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan), huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar berishda u jamiyatga o'z huquqlarini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar bergan shaxslarning soni to'g'risidagi ma'lumotlarni nazorat organiga taqdim etishi kerak [7]. Shunday qilib, nazorat organlari yaratiladigan tashkilotning vakilligini baholab beradi.

MDH mamlakatlari vaziyat boshqacha. Mualliflar kasbiy uyushmalarining zaifligi

va parchalanishi, bir tomondan, MDH mamlakatlari hududining kattaligini hisobga olgan holda asarlarni iste'mol qilish uchun katta bozor, boshqa tomondan, mualliflarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Misol tariqasida Rossiya Federatsiyasida har biri bir necha o'nlab mualliflik huquqi egalarini birlashtirgan guberniya tashkilotlari bor. Buning natijasida mualliflik to'lovlarini yig'ish amalga oshiriladi, chunki ko'p sonli mualliflik huquqi egalari uchun mualliflik to'lovlarini taqsimlashning to'liq tizimi katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi, bu tashkilotlarda esa mavjud emas. Boshqa tomondan, ushbu holat davlatda guberniya tashkilotlarining ishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularning har biri bir necha o'nlab huquq egalarini birlashtiradi. Buning natijasida roylati yig'ish amalga oshiriladi, chunki to'liq huquqli tizim mavjud. Ko'p sonli huquq egalarini uchun mualliflik to'lovlarini taqsimlash ushbu tashkilotlarda mavjud bo'limgan katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. Bunday tashkilotlarning o'z a'zolari foydasiga yig'imiari unchalik katta bo'limganligi sababli ushbu tuzilmalar Rossiya Federatsiyasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni [8] 47-moddasi qoidalaridan foydalangan holda, barcha huquq egalarini uchun to'lovlarini yig'adilar. Bu ularga yig'ilgan mablag'lar miqdorini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Aytish kerakki, yig'ilgan pullar ushbu tashkilotlarga a'zo bo'limgan mualliflik huquqi egalarining ko'pchiligidagi yetib bormaydi. Ko'rinish turibdiki, huquqlar va uning a'zolarini jamoaviy boshqarish tashkiloti ta'sischilarining minimal soni to'g'risidagi nizomning yo'qligi amaldagi qonunchilikning muhim kamchiligi hisoblanadi. Qonun bo'yicha keng vakolatlarga ega bo'lgan (jumladan, mualliflik to'lovlarini undirish) va muayyan toifadagi barcha mualliflik huquqi egalarini nomidan ish olib boradigan tashkilot vakil bo'lishi kerak. Bu bo'shliq fantom

tashkilotlar yaratish uchun yana bir imkoniyat yaratadi. Ular uchun mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish mualliflik huquqi egalarining manfaatlarini himoya qilish uchun jiddiy ish emas, balki boyitish usuli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shunday qilib, mamlakatimizda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari a'zolikka asoslangan nodavlat notijorat tashkilotlari shaklida tuzilishi va faoliyat yuritishi mumkin hamda qonunning 56-moddasi 1-bandni qoidalariga muvofiq, mualliflik huquqi egalarini tomonidan to'g'ridan to'g'ri tashkil etilishi mumkin. Agar jahon amaliyotiga murojaat qiladigan bo'lsak, unda bir davlat doirasida bunday tashkilotlarning soni turli yo'llar bilan hal qilinadi. Odatda har bir mamlakat uchta variantdan birini tanlaydi:

- 1) asarlarning ma'lum bir janriga nisbatan turli xil mualliflik huquqlarini boshqaradigan bir nechta tashkilotlar;
- 2) turli janrdagi asarlarga nisbatan mualliflik huquqining muayyan toifasini boshqaruvchi bir nechta tashkilotlar;
- 3) turli janrdagi asarlarga nisbatan turli mualliflik huquqlarini boshqaradigan bitta tashkilot.

Amerika Qo'shma Shtatlarining BMI [9] va ASCAP [10] mualliflik huquqi jamiyatlari bir xil janrdagi asarlar uchun turli mualliflik huquqlarini boshqaradigan tashkilotlarga misoldir. Bu tashkilotlar parallel ravishda bir davlat hududida musiqa asarlariga nisbatan ommaviy ijro orqali efir, kabel, sim yoki boshqa shunga o'xshash vositalar orqali mu-loqot qilish huquqlarini boshqaradi. Bu jamiyatlarning repertuari ular o'rtasida taqsimlangan. Bunday tashkilotlarning bir xil huquq egasi bir vaqtning o'zida ikkita jamiyatga a'zo bo'lishi odatiy holdir, chunki bu huquq egasining asar namunalari ushbu tashkilotlar o'rtasida taqsimlangan bo'ladi.

Ikkinchisi variantga misol sifatida Fransiyani keltirish mumkin. Bu yerda mualliflik huquqini boshqaruvchi bir nechta tashkilot

mavjud. Biroq ular asarlar janri va foydalanish usullariga qarab qat'iy ajratiladi: SACEM (musiqiy asarlarni ommaviy ijro etish huquqi); SDRM (mexanik ijroga bo'lgan huquqlar); SACD (dramatik asarlarni ommaviy ijro etish va takrorlash huquqi); SGDL (adabiy asarlar); ADAGP (san'at asarlarini qayta ishlab chiqarish va meros huquqi).

Ushbu turdag'i bir nechta tashkilot mavjud bo'lgan tizim ba'zi Yevropa mamlakatlari ham mavjud. Masalan, Avstriya (AKM, AUSTRO-MECHANA, LITERAR-MECHANA va LVG), Buyuk Britaniya (PRS, MCPS, MCOS, DACS va ALCS), Shveysariya (SUISA, PRO LITTERIS, SSA va SUISIMAGE), Ispaniya (SGAE, VEGAP), shuningdek, Amerika davlatlaridan Argentina (ARGENTORES va SADAIC), Chili (SATC i SCD), Meksika (SACM, SOGEM va DIRECTORES) kabi davlatlar.

Ba'zi mamlakatlarda har xil toifalarga mansub asarlarda turli huquqlarni boshqaradigan bitta tashkilot mavjud: SABAM (Belgiya), ACUM (Isroil), SIAE (Italiya) va boshqalar.

Jamoaviy boshqaruvi tizimlaridan qaysi biri samaraliroq degan masala esa 1978-yilda Torontoda bo'lib o'tgan CISAC (Confédération internationale des sociétés d'auteurs et compositeurs)ning XXXI Kongressida [11] muhokama qilindi. Ushbu muhokama davomida turli fikrlar bildirildi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimlarning har biri bunday tashkilotlarning faoliyat sohalari bir-biri bilan kesishmaslik sharti bilan samarali bo'lshi mumkin, ya'ni ma'lum bir janrdagi asarlardagi huquqlarning ma'lum bir toifasi faqat bitta tashkilot tomonidan boshqariladi. Har bir jamoaviy boshqaruvi tizimining mavjudligi uchun barchaning o'z argumentlari mavjud bo'lishi mumkin.

Huquq egalarining bir guruhi doirasida alohida tashkilot tashkil etilishi huquq egalarining manfaatlarini boshqa ayrim guruhlar manfaatlariga bo'ysundirishdan qochadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda yangi tex-

nologiyalarning rivojlanishi va foydalanishning yangi usullari (masalan, Internet) paydo bo'lishini hisobga olgan holda, bir tashkilotning turli janrdagi asarlardan foydalanishning ma'lum bir usuliga bo'lgan huquqni boshqarishi osonroq. Bunday tashkilotlar foydalanuvchilar bilan muzokaralar olib borish va milliy darajada mualliflik huquqi siyosatini shakllantirishda muhim kuchdir.

Jamoaviy boshqaruvi tizimi boshlang'ich bosqichida bo'lgan mamlakatlardan bir nechta jamoaviy boshqaruvi tashkilotlariga ega bo'la olmaydi. Bunday davlatlarda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha markazlashgan va yaxlit tashkilotlar tashkil etilmoqda. Ko'pincha markazlashtirilgan tashkilotlar davlat va yarim davlat shaklida paydo bo'ladi (masalan, Ukraina mualliflik huquqi va turdosh huquqlar agentligi" davlat korxonasi (Ukraina), RUPIS (Belarus Respublikasi). Bizda esa ilgari mavjud bo'lgan O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish Respublika agentligini bunga misol keltirish mumkin.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish sohasidagi mutaxassislarining ta'kidlashicha, huquqlarning ayrim toifalari haqida gap ketganda, jamoaviy boshqaruvgaga xos bo'lgan ko'plab asosiy afzalliklarga faqat bitta tashkilot bilan erishish mumkin (foydalanish uchun litsenziyalar berishda huquqiy yordamning soddaligi va ravshanligi, yagona kelistuv doirasida jahon repertuarining butun majmuasidan foydalanishga ruxsat berish imkoniyati, boshqaruvi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va h.k.). Shuning uchun ham mutaxassislar tomonidan huquqlarning har bir toifasi uchun faqat bitta tashkilot yaratish va parallel tashkilotlarning mavjudligidan qochish tavsiya etiladi [12].

Italiya mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunning 180-moddasi 1-bandiga ko'ra, SIAE (Italiya mualliflar va noshirlar jamiyatiga tegishli bo'lgan mualliflik huquqini boshqarish bo'yicha monopoliya o'rnatilgan. Biroq ushbu qonunning 180-moddasi 4-ban-

dida aytilishicha, "yuqorida nazarda tutilgan mutlaq vakolatlar muallifning, uning meirosxo'rlari yoki huquqiy vorislarining ushbu qonunda e'tirof etilgan huquqlarini bevosita amalga oshirish qobiliyatiga zarar yetka-zmasligi kerak" [13].

Italiya Konstitutsiyaviy sudi 1968-yil 17-apreldagi qarorida SIAEning qonuniy monopoliyasi ijtimoiy manfaatli va shuning uchun konstitutsiyaviy ma'qullangan deb hisoblanishi mumkin deb topdi.

Shveysariyaning 1992-yil 9-oktabrda-gi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Federal qonuni [14]da (42-moddaning 2-band) shunday deyilgan: "Umumiy qoidaga ko'ra, huquqlarni boshqarish uchun ruxsat har bir toifadagi asarlarning faqat bit-ta mualliflik yoki turdosh huquqlar sohasida-gi jamiyatga beriladi".

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni 56-moddasiga binoan, huquqlarni ja-moaviy boshqarish tashkilotlari faoliyatining quyidagi muqobil variantlariga ruxsat beriladi:

1) huquq egalarining turli huquqlari va turli toifalari bo'yicha alohida tashkilotlar;

2) bir toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ko'zlab, turli huquqlarni boshqa-ruvchi tashkilotlar;

3) turli toifadagi huquq egalarining manfaatlarini ko'zlab, huquqlarning bir turini boshqaruvchi tashkilotlar.

Xulosalar

Shunday qilib, qonunchilik huquqlarni ja-moaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar faoliyatini ularning faoliyat sohalari bilan kesishmasligini tartibga soladi. Biroq qonunning ushbu 56-moddasasi, aslida, dunyoda mavjud bo'lgan huquqlarni jamoaviy boshqarish sohasidagi tashkilotlar faoliyatining barcha mumkin bo'lgan variantlarini sanab o'tish bilan cheklangan.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtida qisqa vaqt ichida ma'lum bir toifadagi mualliflik huquqi egalari (yoki ma'lum bir janrdagi asarlarga nisbatan mualliflik huquqi egalari)

ning kuchli uyushmalarini shakllantirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud emas. Bunday tashkilotlarni yaratish va normal ishlashi uchun moliyaviy xarajatlar (haqni taqsimlash xarajatlarini hisobga olgan holda) juda katta. Ijtimoiy shart-sharoitlarning yo'qligi mualliflarning profesional birlashmalari zaifligi bilan izohlanadi. Ularning mavjudligi ilgari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan [15].

Turli davlatlarning huquqlarini jamoaviy boshqarish tashkilotlarini shakllantirish tamoyillarini respublikada rivojlanayotgan vaziyat bilan taqqoslashda mamlakatimizda jamoaviy tashkilotlarni yaratish va ularning faoliyatiga asosiy huquqiy yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimizga mulkiy huquqlarni boshqarish eng rivojlangan jamoaviy boshqarish tizimiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Shveysariya va boshqalar) shakllangan vaziyat turtki bo'ladi [16, 97-b.]. Mamlakatimizda ham, Yevropa mamlakatlarida ham mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar, qoida tariqasida, a'zolikka asoslangan, shuningdek, asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida tijorat faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lmagan nodavlat tashkilotidir. Shu bilan birga, huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha huquqiy normalarni yaratishda qonunchilik O'zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy vaziyatlarni ham hisobga olishi kerak.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi mamlakatimizda ham hozirgi vaqtida davlat huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini shakllantirish va faoliyat yuritish jarayonida o'z ishtiroki ni minimallashtirishga harakat qilmoqda. O'zbekistonda ularning shakllanishi jarayoni hali boshlang'ich bosqichda bo'lganligi sababli ushbu tashkilotlar juda ko'p muammolarga duch kelmoqda.

Ko'p sonli nizolar huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni ustidan davlat to-

monidan nazorat qilishning maxsus huquqiy mexanizmining yo'qligi, shuningdek, huquq egalarining asarlardan foydalanishning bir sohasida va bir toifasiga nisbatan faoliyat yuritishida jamoaviy tashkilotlarning soni to'g'risidagi masala aniq qonun hujjatlarida mustahkamlanmaganligi sababli yuzaga keladi. Afsuski, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 56-moddasi orqali qonun chiqaruvchi, aslida, dunyoda mavjud bo'lgan huquqlarni jamoaviy boshqarishning mumkin bo'lgan variantlarini sanab o'tish bilan cheklanib qolgan hamda jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'zları uchun huquqlarni jamoaviy boshqarish variantlari dan birini tanlash imkoniyatini berdi.

Shubhasiz, bunday tanlovni mualliflar jamiyatlarining shakllanish tendensiyasini hisobga olgan holda, hayot tajribasining o'zi qilish kerak edi. Qonun qabul qilinganiga 15 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu muddat ichida huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha yangi tashkilotlar paydo bo'ldi. Biroq na mualliflar, na boshqa mualliflik huquqi egalari o'zlarining mualliflik huquqlarini birlgilikda boshqarishda ulardan hech qanday haqiqiy qiymat olmagan. Bugungi kunda ommaviy iyro, asarlarni televideniye (radio) orqali es-hittirish va kabel orqali (shu jumladan, Internetda) uzatish, reprografik ko'paytirish, moddiy asarlarni takrorlash sohasida ommaviy axborot vositalari va butun mamlakat

bo'ylab to'plangan roylati yig'ish va tarqatish mexanizmiga ega bo'lgan mualliflik huquqini amalda boshqaradigan haqiqiy kuchli tashkilot mavjud emas. Mualliflik huquqi xizmatlarini jamoaviy boshqarish bozorida mavjud tashkilotlarning ish sifati adolatli tanqidga sabab bo'lmoqda va hali ham dunyoda mavjud mualliflik huquqi jamiyatlari (masalan, SACEM (Fransiya) faoliyat yuritadigan daramadan juda ham uzoqdir.

Bugungi jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarishda eng muvaffaqiyatlisi huquq egalarining bir toifasiga nisbatan asarlardan foydalanishning ma'lum bir sohasida bir tashkilot faoliyatining monopoliyasini o'rnatishdir. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar soni to'g'risidagi masala, uning butun jamiyat uchun ahamiyatidan kelib chiqib, davlat darajasida hal etish va mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish sohasidagi xizmatlarning "yovvoyi" bozori sharoitida ularning omon qolishining tabiiy jarayonlariga taslim bo'lmaslikka yordam beradi. Bu masalalar pirovard natijada nafaqat o'z a'zolari, balki butun jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Bu muammo o'z yechimini boshqa yo'l bilan topa olmaydi, degan fikrdamiz.

REFERENCES

1. Yakubov O. Significance and principles of the trips agreement in the legal system of World Trade Organization Agreements. *The Peerian Journal*, 2022, vol. 9, pp. 65–69.
2. Yakubov O. Trade organization agreements: the main principles of trips agreement. *Conferencea*, 2022, pp. 119–123.
3. Yakubova I.B. O'zbekistonda mualliflik huquqi bo'yicha mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojanishi [Emergence and development of organizations of collective management of copyright property rights in Uzbekistan]. *Jurisprudence*, 2021, no. 6, pp. 66–74.
4. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi [Legal status of intellectual property]. Tashkent, 2000, pp. 36–45.

5. Collective management of copyright and related rights. WIPO. Geneva, 1990, p. 76.
6. SACEM statutes. Available at: [https://societe.sacem.fr/docs/SACEM_statutes.pdf/](https://societe.sacem.fr/docs/SACEM_statutes.pdf).
7. German Copyright and Neighboring Rights Act, as amended by Act of 01.09.2017. Available at: <https://wipolex.wipo.int/ru/legislation/details/17676/>.
8. On Copyright and Related Rights. Law of the Russian Federation. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_law_2238/.
9. BMI is currently the largest music rights organization in the U.S. and continues to nurture new talent and new music. Available at: <https://www.bmi.com/>.
10. ASCAP – the American Society of Composers, Authors and Publishers Available at: <https://www.ascap.com/>.
11. Le Droit d'auteur [Copyright]. 91st year, No. 6. June 1978. Monthly Review of the World Intellectual Property Organization (WIPO)]. Available at: [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/fr/copyright/120/wipo_pub_120_1978_06.pdf/](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/fr/copyright/120/wipo_pub_120_1978_06.pdf).
12. Documents and resources. SACEM. Available at: <https://createurs-editeurs.sacem.fr/en/brochures-documents/>.
13. Italian Law No. 633 of April 22, 1941, on the Protection of Copyright and Related Rights, as amended by Legislative Decree No. 685 of November 15, 1994.
14. Swiss Federal Law of 27 September 2019 amending the Federal Law of 9 October 1992 on Copyright and Neighboring Rights.
15. Yakubova I.B. Pravo na zhizn'-neot'yemlemaya chast' lichnogo neimushchestvennogo prava [The right to life is an integral part of personal non-property law]. *Issues of Modern Jurisprudence*, 2016, no. 12 (62). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravo-na-zhizn-neotemlemaya-chast-lichnogo-neimushestvennogo-prava/>.
16. Yakubova I. Ponimaniye kollektivnogo upravleniya avtorskikh prav v istoricheskem kontekste [Understanding the collective management of copyright in a historical context]. *Yurist Axborotnomasi – Lawyer Herald*, 2020, no. 1 (6), pp. 76–80. DOI: 10.26739/2181-9416-2020-6-11/. Available at: <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/144/119/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.